FUNDAMENTAL VA AMALIY MIKROBIOLOGIYANING HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

2025-YIL 24-25-SENTABR

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MIKROBIOLOGIYA INSTITUTI
O‘ZBEKISTON MIKROBIOLOGLAR JAMIYATI
JAHON BANKI MUNIS LOYIHASI
“Public Research Institutes Modernization Program” (PRIM 01-24)

IKKINCHI AXBOROT XATI

“Fundamental va amaliy mikrobiologiyaning holati va rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya Tashkiliy qo‘mitasi Sizni **2025-yil 24-25-sentabr** kunlari Toshkent shahrida (O‘zbekiston Respublikasi) Fanlar akademiyasi mikrobiologiya instituti tomonidan O’zbekiston Respublikasi Jahon banki va “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnali bilan hamkorlikda o‘tkaziladigan konferensiyada ishtirok etishga taklif etadi.

Konferensiya Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-sonli buyrug‘i, shuningdek, MUNIS-PRIM dasturi bo‘yicha 2024-yil 02-dekabrdagi PRIM 01-06 grant shartnomasiga muvofiq o‘tkazilmoqda.

Konferensiya veb-sayti: https://microbio.uz/imbprim-conference-2025

KONFERENSIYANING ASOSIY YO‘NALISHLARI

1. Zamonaviy mikrobiologiya va biotexnologiya asoslari.
2. Sanoat, qishloq xo‘jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilishda mikrobiologik texnologiyalar.
3. Tibbiyot, farmatsevtika va veterinariya mikrobiologiyasi.
4. Mikrobiologik preparatlarni qo‘llash.

Anjuman ilg‘or fan yutuqlari, dolzarb muammolar va ularni hal etish yo‘llarini muhokama qilish, zamonaviy tadqiqot usullarini ko‘rib chiqish, shuningdek, fundamental va amaliy mikrobiologiya sohasida xalqaro tajriba almashish, mikrobiologiya fanining turli yo‘nalishlarida ilmiy hamkorlikni rivojlantirishga bag‘ishlangan. Anjumanda mikroorganizmlarning ekologik, tibbiy, qishloq xo‘jaligi va sanoatdagi roli, biotexnologiyadan foydalanish imkoniyatlari va bu sohada innovatsion yondashuvlar atroflicha ko‘rib chiqiladi.

Konferensiya doirasida: ishchi uchrashuvlar, muzokaralar, o‘quv seminari, amaliy seminar, mahalliy va xorijiy kompaniyalarning mahsulotlari, innovatsion ishlanmalari, reagentlari, uskunalari, test tizimlari va boshqa tovarlari ko‘rgazmasi bo’lib o’tadi.

MAXSUS TADBIRLAR

Konferensiya doirasida Jahon bankining MUNIS-PRIM 01-24 loyihasi doirasida xalqaro va milliy ekspertlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan strategik va istiqbolli sessiyalar bo‘lib o‘tadi.

1. Forsight sessiyasi: Mikrobiologiya va biotexnologiyalar sohasida amaliy tadqiqotlarni samarali amalga oshirish uchun IMB HUB platformasini shakllantirish.

2. Strategik sessiya: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya institutini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini yangilash. Asosiy masalalar qatoriga ilmiy tashkilot transformatsiyasini boshqarish, jahon ilmiy makoniga integratsiyalashuv va barqaror institutsional rivojlanish kiradi.

Seanslarda ishtirok etish uchun ro‘yxatdan o‘tgan ma’ruzachilar va konferensiya ishtirokchilari orasidan strategik rivojlanish, innovatsion ekotizim, biotexnologiya, amaliy mikrobiologiya, texnologiyalar transferi va sertifikatlashtirish sohalarida vakolatlarga ega bo‘lgan manfaatdor shaxslar taklif etiladi.

3. “Agar Art” san'ati tanlovi: san'at orqali mikrobiologiyani ommalashtirishga qaratilgan "Agar Art" ijodiy tanlovi natijalarini sarhisob qilish. Ko‘rgazmada tirik mikroorganizmlar yordamida ozuqaviy muhitda yaratilgan eng yaxshi ishlar taqdim etiladi va diplom va sovg‘alar bilan taqdirlanadi.

Agar siz hali ariza topshirmagan bo'lsangiz, lekin ishtirok etishni istasangiz - shoshiling!

Ishlarni qabul qilish davom etmoqda!

Agar Art tanlovida ro'yxatdan o'tish va ishtirok etish uchun havola:

https://forms.gle/6jaLkvMF8cCvz3VF9

Tanlovda ishtirok etish uchun arizalarni topshirishning oxirgi muddati - 7 sentyabr

Tugallangan ishlarni topshirishning oxirgi muddati - 20 sentyabr

Konferensiyaning rasmiy tillari: o‘zbek, rus, ingliz

Ishtirok etish shakllari:

- 20 daqiqagacha yalpi majlisda ma'ruza qilish
- 10 daqiqagacha seksiyaviy sessiyada hisobot
- Konferentsiyada ishtirok etmagan holda nashr qilish
- Ko'rgazmada, shuningdek, bir qator ilmiy tadbirlarda ishtirok etish (seminar, ishchi uchrashuv, muzokaralar)

Konferensiya manzili: “PANARAMS” mehmonxonasi – Boyqo‘rg‘on 2, 100007, Toshkent, O‘zbekiston

Tashkiliy qo'mita manzili:

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Mikrobiologiya instituti.

Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 7B uy.

Telefon: +(998)71-241-92-28 (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya instituti) +(998)88-198-37-00 – **Usmonqulova Aziza,**

+(998) 90-353-26-01 – **Xidirova Mastura**

KONFERENSIYA MATERIALLARINI RO‘YXATDAN OLISH VA TAQDIM ETISH

Ro‘yxatdan o‘tish shaklini to‘ldirish uchun havolaga o‘ting:

https://forms.gle/NgecbMANWxjirv9u9

Ro‘yxatdan o‘tish shaklini 2025-yil 1-sentabrgacha to‘ldirish zarur.

Anjumanda ishtirok etishni xohlovchilar **2025-yil 15-sentabrga qadar** maqolani 1-ilovaga mos rasmiylashtirib quyidagi elektron manzilga yuborishlari so‘raladi: imbprim@microbio.uz hamda quyidagi telegram profil orqali: **Dilnoza Narzullaeva** (+998958636340) @Science_MMM_journal.

Maqolalar ko‘rsatilgan konferensiya yo‘nalishlaridan biriga mos kelishi kerak. Qabul qilingan barcha materiallar talablarga muvofiqligi uchun texnik ekspertizadan o‘tkaziladi. Tashkiliy qo‘mita materialni taqdim etish shaklini belgilash huquqini o‘zida saqlab qoladi. Materiallarni qabul qilish yoki rad etish to‘g‘risidagi bildirishnoma mualliflarga 10 kun ichida yuboriladi.

Ro‘yxatdan o‘tish to‘lovini to‘lamagan holda, shuningdek, ro‘yxatdan o‘tgandan keyin taqdim etilgan materiallar chop etilmaydi.

Tashkiliy to‘lov

O‘zbekistondan konferensiya ishtirokchilari uchun ro‘yxatdan o‘tish to‘lovi 2**00 000 so‘m**, boshqa mamlakatlardan kelgan ishtirokchilar uchun esa **150 AQSh dollar**ini tashkil etadi.

Mahalliy ishtirokchilar to‘lov uchun summani hisob raqamiga yuboradilar: 20208000105517058001. (Plastik karta: 9860040104873951 Raxmatullayeva Gulirano).

Chet ellik ishtirokchilar uchun: 20208840405517058001, SWIFT Code - SCPEUZ22, Bank Code - 01125 (4916990300840169- Bakhtiyor Rustamov, Visa).

Iltimos, to‘lovdan keyin chekni yuboring.

Xorijiy ishtirokchilar va qiziquvchilar uchun so‘rov bo‘yicha (**qo‘shimcha haq evaziga**) Samarqand, Buxoro, Xiva va Toshkent shaharlariga ekskursiyalar tashkil etilishi mumkin..

Konferensiya materiallariga qo‘yiladigan talablar

Ishning mazmuni aniq va tushunarli tarzda taqdim etilishi kerak. Maqolalar mualliflar tomonidan elektron shaklda taqdim etiladi. Maqolalar o‘zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi. Annotatsiya va kalit so‘zlar (uch tilda) taqdim etilishi lozim.

Maqola kompyuter matnining 3 sahifasidan kam bo‘lmasligi kerak, A4 formatda, portret yo‘nalishida, Microsoft Word dasturida terilgan, interval 1,15, Times New Roman shrifti, shrift o‘lchami 12. Sahifaning parametrlari: yuqori va pastki – 2 sm, chap – 3 sm, o‘ng – 1,5 sm, paragraf – 1,25 sm. Maqolada kirish, materiallar va usullar, natijalar va muhokamalar, xulosa, minnatdorchilik (agar kerak bo‘lsa) va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati bo‘lishi kerak. Materiallar ilgari nashr etilmagan bo‘lishi kerak. Mualliflar maqolalar mazmuni va taqdim etilgan ma’lumotlar va statistik ma’lumotlarning to‘g‘riligi uchun javobgardir.

Konferensiya materiallarini indekslash

Konferensiyaga qabul qilingan har bir maqola ilmiyanjumanlar.uz platformasidagi Index Copernicus Poland, Zenodo va Open Aire Europe xalqaro ma’lumotlar bazalarida joylashtiriladi hamda Google scholar xalqaro qidiruv tizimida indekslanadi.

Har bir maqola uchun alohida DOI raqami beriladi.

Har bir muallifga elektron sertifikat, indekslash sertifikati va indekslangan maqolaning PDF-versiyasi taqdim etiladi. Konferensiya materiallari elektron va bosma shaklda chop etiladi.

Konferentsiya veb-sayti QR-kodi	**Ro'yxatdan o'tish shaklini to'ldirish uchun QR-kodi**	**Agar Art tanlovida ro'yxatdan o'tish uchun QR-kodi**

1-ilova

Fayl nomlariga misollar: sodiqov.doc

MAQOLA NOMI

Sodiqov Kamol Izzatullayevich[1], Vohidova Madina Pulatovna[2]

[1]O‘zR FA Mikrobiologiya instituti tayanch doktoranti,

[2]O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya instituti, biologiya fanlari doktori

Annotatsiya. *matn, matn, matn, matn, matn.*

Kalit so‘zlar: *matn, matn, matn, matn, matn.*

Asosiy matn….

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. matn, matn, matn, matn, matn.